



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024-yil yanvar-mart oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(76) 225-65-74



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 101 746,0 ming AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 26 451,9 ming AQSH dollariga yoki 35,1 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y.: **101 746,0** +35,1 %

(2023-y.: **75 294,1**)



Saldo

2024-y.: **5 246,0** (2023-y.: **12 084,7**)




Eksport

2024-y.: **53 496,0** +22,4 %

(2023-y.: **43 689,4**)

TSA'dagi ulushi, % da

52,6



Import


2024-y.: **48 250,0** +52,7 %

(2023-y.: **31 604,7**)

47,4













Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi 53 496,0 ming AQSH dollariga (22,4 % ga ko‘paydi) va import hajmi 48 250,0 ming AQSH dollariga (52,7 % ko‘paydi). Hisobot davrida 5 246,0 ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

<p>Turkiya</p> <p>TSA – 29 038,5</p> <p>Eksport: 3 509,6 Import: 25 528,8</p> <p> 28,5 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 23 177,4</p> <p>Eksport: 19 165,0 Import: 4 012,3</p> <p> 22,8 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 15 168,7</p> <p>Eksport: 11 163,3 Import: 4 005,3</p> <p> 14,9 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 11 770,0</p> <p>Eksport: 11 052,1 Import: 717,9</p> <p> 11,6 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 6 866,4</p> <p>Eksport: 5 857,9 Import: 1 008,4</p> <p> 6,7 %</p>
<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 2 923,3</p> <p>Eksport: 316,9 Import: 2 606,4</p> <p> 2,9 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 2 114,2</p> <p>Eksport: 91,0 Import: 2 023,2</p> <p> 2,1 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 1 919,2</p> <p>Eksport: 108,7 Import: 1 810,5</p> <p> 1,9 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 1 671,4</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 1 671,2</p> <p> 1,6 %</p>	<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 1 190,8</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 1 190,8</p> <p> 1,2 %</p>

Surxondaryo viloyati jahonning 45 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (28,5 %), Pokistonda (22,8 %), XXRda (14,9 %), Rossiyada (11,6 %), Afg‘onistonda (6,7 %), Qozog‘istonda (2,9 %), Hindistonda (2,1 %), Eron (1,9 %), Germaniyada (1,6 %) va Turkmaniston (1,2 %) qayd etilgan.



SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)


	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Turkiya	8 992,0	6 179,6	29 038,5
	<i>Eksport</i>	6 077,6	2 749,4	3 509,6
	<i>Import</i>	2 914,3	3 430,1	25 528,8
	Pokiston	21 345,1	22 532,0	23 177,4
	<i>Eksport</i>	8 219,3	12 948,0	19 165,0
	<i>Import</i>	13 125,8	9 584,1	4 012,3
	XXR	32 720,8	18 476,3	15 168,7
	<i>Eksport</i>	19 610,3	12 633,8	11 163,3
	<i>Import</i>	13 110,5	5 842,5	4 005,3
	Rossiya	17 132,2	6 384,9	11 770,0
	<i>Eksport</i>	6 114,8	4 853,9	11 052,1
	<i>Import</i>	11 017,4	1 531,0	717,9
	Afg'oniston	6 080,4	3 942,3	6 866,4
	<i>Eksport</i>	5 885,0	3 670,2	5 857,9
	<i>Import</i>	195,4	272,1	1 008,4
	Qozog'iston	7 210,0	5 033,3	2 923,3
	<i>Eksport</i>	5 428,6	1 328,7	316,9
	<i>Import</i>	1 781,4	3 704,6	2 606,4
	Hindiston	1 219,6	1 503,1	2 114,2
	<i>Eksport</i>	208,4	700,3	91,0
	<i>Import</i>	1 011,2	802,8	2 023,2
	Eron	2 371,1	1 413,7	1 919,2
	<i>Eksport</i>	1 778,1	1 091,8	108,7
	<i>Import</i>	593,0	321,9	1 810,5
	Germaniya	1 043,6	360,1	1 671,4
	<i>Eksport</i>	540,7	161,9	0,2
	<i>Import</i>	502,9	198,2	1 671,2
	Turkmaniston	405,3	334,2	1 190,8
	<i>Eksport</i>	141,7	108,4	-
	<i>Import</i>	263,6	225,8	1 190,8

Davlatlar		2022-y.	2023-y.	2024-y.
Ekvador		240,4	25,8	631,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	240,4	25,8	631,0
Belarus		467,8	401,4	624,2
	<i>Eksport</i>	303,1	122,9	624,2
	<i>Import</i>	164,7	278,5	-
Avstriya		-	-	577,2
	<i>Eksport</i>	-	-	0,1
	<i>Import</i>	-	-	577,1
Polsha		144,2	158,2	549,5
	<i>Eksport</i>	60,9	98,2	136,4
	<i>Import</i>	83,3	59,9	413,1
Tojikiston		1940,3	2708,8	499,5
	<i>Eksport</i>	920,7	1281,4	292,5
	<i>Import</i>	1019,6	1427,4	206,9
Qirg'iz Respublikasi		1510,9	451,6	482,3
	<i>Eksport</i>	1103,9	438,2	81,9
	<i>Import</i>	406,9	13,4	400,4
Ozərbayjon		518,1	364,3	367,6
	<i>Eksport</i>	518,1	364,3	367,6
	<i>Import</i>	-	-	-
Chexiya		111,5	185,4	360,4
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	111,5	185,4	360,4
Daniya		-	-	252,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	252,6
Shveysariya		7,3	119,5	247,0
	<i>Eksport</i>	-	0,026	0,004
	<i>Import</i>	7,3	119,4	247,0



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024-yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)*



Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani **26,3 %** ulush bilan **26 737,8** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun tumanida **2,1 %** ulush bilan **2 159,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)




2024-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 17,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga kamaydi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-mart oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi 82,4 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-mart holatiga ko'ra, 17 902,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 12 779,7 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 5 122,4 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI

(2024-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (65,7 %), Qozog'iston (16,3 %), Turkmaniston (6,7 %) hamda Belarus (3,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SURXONDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari)



Surxondaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 15 799,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 12 075,1 ming AQSH dollari, import hajmi esa 3 724,7 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni 120 taga yetdi va ular tomonidan 53 496,0 ming AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 22,4 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-mart, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	43 689,4	53 496,0	75,4	122,4	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	23 412,9	29 481,8	97,8	125,9	53,6	55,1
Ichimliklar va tamaki	408,3	-	-	-	0,9	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 789,5	1 948,0	66,9	108,9	4,1	3,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	48,2	132,3	82,4	2,7 m.	0,1	0,2
Sanoat tovarlari	16 840,9	18 916,5	55,9	112,3	38,6	35,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	42,3	528,5	7,8 m.	12,5 m.	0,1	1,0
Turli xil tayyor buyumlar	260,5	1 123,3	197,2	4,3 m.	0,6	2,1
Xizmatlar	886,8	1 365,6	112,1	154,0	2	2,6

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,4 % ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (55,1 %), sanoat tovarlari (35,4 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (3,6 %), xizmatlar (2,6 %) va turli xil tayyor buyumlar (2,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-mart)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	26 696,2	132,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 737,0	84,0
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	35,6	7,6 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	9,5	-
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar	3,6	50,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	1 241,2	2,6 m.
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	432,3	98,2
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo	179,8	175,4
Xayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	94,8	12,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yoqlar, taninlar va bo'yoqlar	131,1	2,7 m.
Noorganik kimyoviy moddalar	1,0	3,3 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,2	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	411,8	10,4 m.
Aniq soxalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	96,3	-
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari)	20,4	7,0 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	18 718,4	116,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	147,9	36,3
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	38,6	12,7
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	10,9	3,6 m.
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	0,4	-
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	0,2	2,7
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	467,7	162,1
Moliyaviy xizmatlar	292,6	99,2
Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari	275,7	-
Boshqa biznes xizmatlari	220,0	190,0
Sayohat	109,6	58,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1 081,7	19,6 m.
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	29,9	17,6
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	10,8	-
Har xil tayyor mahsulotlar	0,8	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga 12 779,7 ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 23,9 % ini tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, XXR, Rossiya, Afg'oniston, Turkiya, Belarus va Ozarbayjon kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-mart, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Pokiston	12 948,0	19 165,0	157,5	148,0	1	1
XXR	12 633,8	11 163,3	64,4	88,4	2	2
Rossiya	4 853,9	11 052,1	79,4	2,3 m.	3	3
Afg'oniston	3 670,2	5 857,9	62,4	159,6	4	4
Turkiya	2 749,4	3 509,6	45,2	127,6	5	5
Belarus	122,9	624,2	40,6	5,1 m.	16	6
Ozərbayjon	364,3	367,6	70,3	100,9	12	7
Qozog'iston	1 328,7	316,9	24,5	23,9	6	8
Tojikiston	1 281,4	292,5	139,2	22,8	7	9
Latviya	0,1	168,0	148,4	2114,1 m	25	10
Polsha	98,2	136,4	161,4	138,8	18	11
Eron Islom Respublikasi	1 091,8	108,7	61,4	10,0	8	12
Peru	700,3	91,0	3,4 m.	13,0	9	13
Qirg'iz Respublikasi	438,2	81,9	39,7	18,7	10	14
AQSh	4,7	79,0	124,0	16,7 m.	23	15
Peru	-	55,4	-	-	-	16
Misr	-	49,7	-	-	-	17
Ukraina	0,1	44,2	0,1	559,6 m.	-	18
Xitoy, Gonkong MMR		14,9	-	-	35	19
BAA	381,3	4,0	194,0	1,1	11	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)*



ViLOYATIMIZ EKSPORTI tarkibida eng yuqori ulushni Angor tumani 12,8 % bilan 6 864,1 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Boysun 1,7 % bilan 928,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI











Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-mart oylarida 63 214,9 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,8 m. yoki 46 385,0 tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (62,9 %), Rossiya (25,0 %), Afg'oniston (8,7 %), Ozarbayjon (1,1 %) hamda Belarus (0,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024-yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 29 404,0 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 31,1 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 55,0 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-mart, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum quritilgan</p> <p>79,1 ming AQSH dollari</p> <p>48,0 tonna</p> <p> 97,2 % ↓</p>	<p>Karam</p> <p>2 556,2 ming AQSH dollari</p> <p>11 689,6 tonna</p> <p> 14,1 m. ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>12 397,4 ming AQSH dollari</p> <p>41 575,3 tonna</p> <p> 25,2 m. ↑</p>	<p>Dukkakli donli ekinlar</p> <p>6 638,6 ming AQSH dollari</p> <p>2 109,6 tonna</p> <p> 46,6 % ↓</p>
<p>Uzum</p> <p>557,6 ming AQSH dollari</p> <p>767,0 tonna</p> <p> 5,3 m. ↑</p>	<p>Yer yong'oq</p> <p>1 087,8 ming AQSH dollari</p> <p>684,0 tonna</p> <p> 3,6 m. ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>325,5 ming AQSH dollari</p> <p>241,3 tonna</p> <p> 2,5 m. ↑</p>	<p>Meva va rezavorlar</p> <p>2 042,9 ming AQSH dollari</p> <p>1 383,0 tonna</p> <p> 50,1 % ↓</p>




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-mart)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	36 289,9	18 485,4	62,9
 Rossiya	17 392,0	7 358,5	25,0
 Afg'oniston	8 219,7	2 544,0	8,7
 Ozarbayjon	213,4	327,5	1,1
 Belarus	227,0	236,7	0,8
 Latviya	386,7	167,2	0,6
 AQSh	13,0	76,4	0,3
 Qozog'iston	139,7	68,5	0,2
 Ukraina	60,0	43,4	0,1
 Tojikiston	46,9	39,0	0,1
 Polsha	89,6	34,9	0,1
 Turkiya	20,4	15,8	0,1
 Boshqa davlatlar	116,6	6,7	0,0

* qiymat ifodasidan



2024-yil yanvar-mart oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 62,9 %).



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024-yil yanvar-mart oyi yakuni bo'yicha 19 800,1 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 19,4 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 37,0 % ga oshdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (80,9 %), gazlamalar (9,3 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (5,5 %) va gilamlar (0,4 %), asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning 11 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSH dollari)



		2023-yil	2024-yil	O‘shish sur‘ati, % da
	XXR	9 680,8	11 163,3	115,3
	Turkiya	2 580,4	3 103,8	120,3
	Rossiya	2 454,9	2 706,7	110,3
	Afg‘oniston	11,7	1 832,8	156,7 m.
	Pokiston	599,0	599,7	100,1
	Eron	-	108,7	-
	Polsha	-	101,3	-
	Peru	-	55,4	-
	Misr	-	49,7	-
	Ozarbajjon	33,6	39,8	118,5
	Qirg‘iz Respublikasi	106,7	38,8	36,4




To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi XXR (56,4 % – 11 163,3 ming AQSH dollari), Turkiya (15,7 % – 3 103,8 ming AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (13,7 % – 2 706,7 ming AQSH dollari) va Afg‘oniston (9,3 % – 1 832,8 ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi 1 365,6 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,6 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 54,0 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (34,2 %), moliyaviy (21,4 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (20,2 %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (16,1 %) va safarlar (turizm) (8,0 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI

2024-yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 48 250,0 ming AQSH dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan 152,7 % tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (65,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,0 %), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (4,3 %) hamda sanoat tovarlari (4,2 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16 539,2 ming AQSH dollariga ko‘paydi va 48 032,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 218,0 ming AQSH dollariga yetdi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	31 604,7	48 250,0	66,0	152,7	100	100
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12 391,8	9 174,8	77,5	74,0	39,2	19,0
Ichimliklar va tamaki	-	199,6	-	-	-	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	178,4	272,0	11,3	152,5	0,6	0,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	213,7	1 421,8	112,1	6,7 m.	0,7	2,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	88,4	-	-	-	0,3	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 213,0	2 053,2	83,7	169,3	3,8	4,3
Sanoat tovarlari	5 259,9	2 021,3	47,4	38,4	16,6	4,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	11 704,1	31 436,8	67,9	2,7 m.	37	65,2
Turli xil tayyor buyumlar	443,5	1 452,6	171,1	3,3 m.	1,4	3,0
Xizmatlar	111,8	218,0	98,1	194,9	0,4	0,5



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-mart)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	6 258,6	61,4
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 563,8	-
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	722,5	35,9
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	258,7	2,3 m.
Go'sht va go'sht mahsulotlari	217,9	-
Shakar, shakardan mahsulotlari va asari	92,6	2058,3 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	31,2	52,6
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	27,1	117,3
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	2,5	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	269,4	2,2 m.
Qog'oz massasi	2,5	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 190,8	5,6 m.
Ko'mir, koks va briketlar	230,9	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 327,6	190,2
Organik kimyoviy moddalar	217,0	5,4 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	189,6	125,0
Noorganik kimyoviy moddalar	144,9	97,4
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	92,6	2,9 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	52,2	118,4
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	13,9	17,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13,8	82,6
Bo'yardigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,6	57,5


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, % da
Turli xil tayyor buyumlar		
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarini blokli binolar, armatura va mahkamlash	448,0	184,7 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	446,4	10,5 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	407,9	131,7
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	55,3	27,8 m.
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	45,1	3,2 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	41,7	57,1
Poyabzal	7,0	29,5 m.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	1,3	261,6 m.
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 693,4	91,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	88,8	7,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	86,3	20,0
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	55,2	3,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	34,8	51,4
Rangli metallar	22,8	164,4
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	22,3	11,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	17,7	42,3 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	8 834,0	7,2 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	8 095,0	2,7 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1 531,5	61,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 453,6	6,3 m,
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	340,1	14,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	119,5	61,2 m.
Metallni qayta ishlash mashinalari	78,9	108,5
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	40,0	11,3 m.



2024-yil yanvar-mart natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 10,6 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024-yil yanvar-mart oylarida viloyatimiz 29 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, Pokiston, XXR, Qozog'iston, Hindiston, Eron va Germaniya) jami importning 3/4 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-mart, % da)






SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Turkiy	3 430,1	25 528,8	117,7	7,4 m.	4	1
Pokiston	9 584,1	4 012,3	73,0	41,9	1	2
XXR	5 842,5	4 005,3	44,6	68,6	2	3
Qozog'iston	3 704,6	2 606,4	2,1 m.	70,4	3	4
Hindiston	802,8	2 023,2	79,4	2,5 m.	9	5
Eron	321,9	1 810,5	54,3	5,6 m.	11	6
Germaniya	198,2	1 671,2	39,4	8,4 m.	16	7
Turkmaniston	225,8	1 190,8	85,7	5,3 m.	15	8
Afg'oniston	272,1	1 008,4	139,3	3,7 m.	14	9
Rossiya Federatsiyasi	1 531,0	717,9	13,9	46,9	6	10
Ekvador	25,8	631,0	10,7	24,5 m.	26	11
Avstriya	-	577,1	-	-	-	12
Polsha	59,9	413,1	71,9	6,9 m.	22	13
Qirg'iz Respublikasi	13,4	400,4	3,3	29,9 m.	27	14
Chexiya	185,4	360,4	166,3	194,3	17	15
Daniya	-	252,6	-	-	-	16
Shveysariya	119,4	247,0	16,4 m.	2,1 m.	18	17
Tojikiston	1 427,4	206,9	140,0	14,5	7	18
Vengriya	-	93,1	-	-	-	19
BAA	27,4	91,8	-	3,3 m.	24	20



SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI


(2024-yil yanvar-mart, ming AQSH doll.)*




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Angor 41,2 % bilan 19 873,7 ming AQSH dollarini, eng quyi, Qiziriq 2,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

 2024-yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 2 021,3 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,6 % kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 4,2 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN HAMKOR DAVLATLAR (2024-yil yanvar-mart)



 Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (1 693,4 ming AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (88,8 ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (86,3 ming AQSH dollari), noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (55,2 ming AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar (34,8 ming AQSH dollari), rangli metallar (22,8 ming AQSH dollari), rezina buyumlari (22,3 ming AQSH dollari) va probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (17,7 ming AQSH dollari) tashkil topgan.